

PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYAT DEFORMATSIYALARI

Atadjanov Mampirjon Yusupovich

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, FarDU

Fotimaxon Abdulhomidova Abdulxopizovna

Psixologiya yo'nalishi kurs magistranti, FarDU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagog kasbini egallashni dastlabki bosqichining tipik deformatsiyasi ko'rib chiqiladi, shuningdek, talabalarni qo'llab-quvvatlash motivatsiyasi, bo'lajak pedagogning shaxsiyati va tashkilotchilik qobiliyatiga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so'zlar: *pedagog, kasbiy deformatsiya, psixologik salomatlik, shaxsiyat, xulq-atvor, hissiy charchash, kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается типичная деформация начального этапа освоения профессии личности педагога, а также проанализированы мотивация поддержки студента, направленность на предмет и организаторские способности будущего преподавателя.*

Ключевые слова: *педагог, профессиональная деформация, психологическое здоровье, личность, поведение, эмоциональное истощение, особенности профессиональной деятельности.*

Abstract: *In this article it is analyzed typical deformation of the initial stage of development of a profession of the identity of the teacher is considered, and also the motivation of support of the student, an orientation regarding and organizing abilities of future teacher.*

Key words: *pedagogical, professional deformation, psychological health, personality, behavior, emotional exhaustion, specifics of professional activity.*

O'quv muassasalari rahbarlari, shu jumladan amaliyotchi psixologlar o'z ish faoliyatlari davomida ko'pincha tipik pedagogik deformatsiyani yuzaga chiqaruvchi, shaxsga ta'sir etuvchi kasbiy faoliyatlar mexanizmlarini aniqlashda, o'qituvchini kasbga kirish bosqichini baholash muammolariga duch keladilar. Chunki, rahbarlar o'zi rahbarlik qilayotgan o'quv muassasasida kadrlar bazasini yaratishda qo'l ostidagi pedagog hodimlarning tipik deformatsiyasini bilmasdan turib uni biror ishga tavsiya qilishda muammoga duch kelishi tabiiy. Avvalo biz kasbiy destruksiya va deformatsiya so'zlarini farqlab olmog'imiz lozim. Bunda, kasbiy destruksiya - insonni va faoliyat tuzilmasini o'zgarishi bo'lib, mehnatni unumdorligi va mana shu jarayonning bevosita ishtirokchilariga negativ munosabatdir [1].

Shaxsni kasbiy deformatsiyasi – bir muddat davomida bir xil kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishda shaxs xususiyatlarining (idrok stereotipi, qadriyatlar oriyentatsiyasi, xarakter, munosabatlar va xatti-xarakatlar) o'zgarishidir[2]. Boshqa

bir adabiyotda shaxsni kasbiy deformatsiyasiga quyidagicha ta'rif beriladi. Bu shaxsiy xususiyatlarni o'zgarishi bo'lib, kasbiy majburiyatlarni bajarish davomida kasbiy xulq-atvor, gapirish usuli hamda harakatlarida ko'zga tashlanadi. Kasbiy faoliyat va individual xulq-atvor inson o'zi shug'ullanayotgan kasbi uchun ahamiyatli fazilatlarining darajasini o'zgartirib yuboradiki, bu faoliyat sifatini o'zgarishiga negativ ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari o'z navbatida ma'lum bir sharoitlarda insonning ruhiy tizimiga deformatsiya qilish orqali negativ ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki har bir kasbni o'z stressorlari va travmatik alomatlari mavjud. Shunday qilib ko'proq insonlar bilan bog'liq kasblarda kasbiy deformatsiya yuqori ta'sirga ega bo'lib bular asosan idora hodimlari menedjerlari, tibbiy hodimlar, pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy mehnat hodimlari va boshqalardir [4]. «Kasbiy deformatsiya» terminini Pitirim Sorokin tomonidan qo'llanilgan bo'lib, kasbiy faoliyatni inson ruhiyatiga negativ ta'siri deb ta'riflangan. Kasbiy deformatsiya terminini S.G.Gellershteyn (1930), A.K.Markova (1996), E.F.Zeyer (1999, 2003), S.P.Beznosov (2004), R.M.Granovskaya (2010), S.A.Drujilov (2013) va boshqalar o'z ilmiy ishlarida ta'riflaganlar.

Psixologlar esa o'z ish faoliyati davomida o'quv muassasasidagi pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi ayrim muammolarni hal qilishda yoki o'quvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlardan kelib chiqadigan ba'zi kelishmovchiliklarni bartaraf qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Biroq ko'p miqdordagi mezonlar va pedagoglarni turlarga bo'lish asoslari borligi bu tekshirishlarni qiyinlashtiradi. Bunda ba'zi o'qituvchilar o'z faoliyatida turli qirralarini ko'rsatishi orqali muvaffaqiyatga erishadilar, ba'zilar yoshlarni maslahatchisi va do'stiga aylanishadi, boshqasi o'quvchilarni mutaqil va qat'iyatli qilib shakllantirishga moslashadilar, yana kimdir bo'sh o'quvchilarga o'zlarining kamchiliklarini sababini yo'qotishga yordam beradi. Bu faoliyat turlarini bittasini ustun qo'yib bo'lmaydi, chunki hammasi kerakli. Quyida biz o'tkazgan so'rovnoma turli o'qitish usullariga yo'nalgan pedagoglarni bir-biriga taqqoslash va baholash imkonini beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz Farg'ona davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi tinglovchilarida "O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini baholash" so'rovini o'tkazdik. So'rovni tashkil etgan masalalar asosan o'qituvchilarni faoliyati davomida shakllangan xolatini ifodalashga qaratildi.

Olingan natijalarga ko'ra "Predmetga" (1 tur) yo'nalganlik tipiga mansub o'qituvchilar 21,83 foiz tashkil qilib, ular uchun kuzatuvchanlik, kasbiy kompetentlik, ijodga intilish, konstruktivlik, mo'ljal ola bilish vazifalari xosdir.

Predmetik tip o'quvchilarni predmetga kuchli yo'naltirish va ularning faoliyatini aynan fan bilimlari ichida tashkil qilish kabi yo'nalganlik bilan boshqalardan farq qilishadi.

Hayotda bilimning kerakligi va ahamiyatligiga qattiq ishongan ratsionalist, predmetik-o'qituvchini o'quvchining dunyoni ilmiy ko'rinishini qabul qilinish, to'garak ishlariga jalb qilish va boshqalar bilan o'qilayotgan predmet vositasida tarbiyalashga ko'proq e'tibor beradi.

Predmetik o'qituvchi shaxsining o'zagarishi o'zi o'qitayotgan fanning tarkibiga bog'liq bo'ladi. Bu tipdagi o'qituvchi hamma joyda, xatto turmushda ham ilmiylikka amal qiladi va odamlarga fan haqidagi bilimlariga asoslanib baho beradi. Bu tip o'qituvchilarda faoliyatidagi deformatsiya o'quvchilarni tarbiyasi shakllantirishda, dunyoqarashini tashkil etilishini torayib borishida bilinadi.

“Tashkilotchi”(2 tur) tipidagi o'qituvchilar 20,86 foiz tashkil qilib, bu tipdagi o'qituvchi shaxsi strukturasi talabchanlik, tashkilotchilik, kuchli iroda, shijoat va doimiy safarbarlik sifatleri tashkil qiladi.

Bolalar va jamoa orasida faol hisoblangan “tashkilotchi-o'qituvchi” o'zining shaxsiy fazilatlarini sinfdan tashqari vaqtda o'tkaziladigan tadbirlarda namoyon qiladi. Shuning uchun uning ta'sir etish natijalari xamkorlik ishlarida, jamoat qiziqishlarida, tartib-intizom va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchi-o'qituvchi juda faol, boshqa odamlar shaxsiy hayotiga aralashuvchi va ularni to'g'ri yashashga o'rgatishga harakat qiluvchi bo'lishi mumkin. U ko'pincha atrofdagilarni bo'ysunishga, boshqarishga, ularni faoliyatini tashkillashtirishga harakat qiladi. Faolligi o'rinli bo'lgan jamoat tashkilotlarida tashkilotchi o'qituvchi ko'pincha o'zining talablarini qondiradi. “Tashkilotchi” tipidagi o'qituvchilar faoliyatidagi deformatsiya ularni asosiy faoliyatida ta'lim tarbiyada ma'lum talabiy faoliyatdan chetlanishda kuzatiladi. Ular ta'lim va tarbiyani taqsimlanish strategiyasini buzadi. O'quvchilarni predmet bo'yicha asosiy bilimni olish mexanizimida buzilishlar kuzatiladi.

“Qo'llab-quvvatlash motivatsiyasi” (3 tur) ustun tiplar 20,56 foizni tashkil qilib ular-ko'p hollarda maktab o'quvchisining ishlariga bergan ijobiy bahosi, uning xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlashi, ma'qullashning har-xil turlarini (og'zaki rag'batlantirish, maqtash, ota onalarga yuborilgan xatlar) qo'llashda ko'zga tashlanadi va ular ushbu yo'nalganliklari orqali o'quvchida ijobiy emotsiyalar, qilingan ishdan quvonchli qanoatlanish hissini paydo qiladi va bundan keyin ham ana shunday qilish istagini keltirib chiqaradi. bunday tiplarning muomala usulida ko'proq nerv sistemasi kuchsiz, qo'rqqoq, tortinchoq, o'ziga ishonmagan va ruhan osongina jaroxatlanadigan o'quvchiga dalda berish kuzatiladi. Bizga ma'lum bunday o'quvchilarga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatish choralari, qattiq jazolar, qat'iy baholarning qo'llanilishi yaramaydi. Hattoki, ularga muomala oxangi ham turlicha bo'lishi kerak. Individual yondoshishda rag'batlantirishning o'quvchilarga turlicha ta'sir ko'rsatishini unutmashlik lozim. “Qo'llab-quvvatlash motivatsiyasi”(3 tur) tip o'qituvchilari faoliyatida xam deformatsiya kuzatilib, ta'lim tarbiya soxasini o'quvchilarni rivojlantirish tendensiyasiga burib yuboradilar. O'quvchilar rivojlanib

borish yo'ldan borganlarida predmetni o'rganishda to'la qamrab olish prinsipi buzilishi mumkin. Ya'ni o'quvchilar predmetlarni o'rganishda yengil tomonga yurib, o'quv materiallarini to'la o'rganish imkoniyatida chetlanishi mumkin. Bu tip o'qituvchilar faoliyatidagi deformatsiya ta'lim tizimiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

“Intelligent” (4 tur) tipiga mansub o'qituvchilar 20,41 foizni tashkil qilib, ular-yuqori intellekt, umumiy madaniyat, odoblilik bilan harakterlanadi.

Intelligent – o'qituvchi hayotining ko'p yillarini kasbiga bag'ishlagan, o'zida falsafiy donishmandlikni shakllantirib, sharoitga bog'liq holda o'tgan davrlarni maqtab va yoshlarga tanbeh berib, o'zining atrofida faqat yomon narsalarni ko'ruvchi moralist bo'lishi mumkin.

Intelligent o'zining kasbiy faoliyatida gnostikdir. Tarbiyaviy, ilmiy tekshirish, axborot, tashviqot, rivojlantirish va o'zini shakllantirish funksiyalarini alohida qiyinchiliklarsiz bajarishga moslashgan. Prinsipialligi, aqliy me'yorlarga qat'iy amal qiluvchi “intelligent-o'qituvchi” yoki “ma'rifatchi” yuqori intellektual ma'rifiy faoliyat, o'quvchilarga odob-ahloqni o'rgatish, ma'naviylik, ozodalikni his qilishi bilan o'zligiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida “Intelligent-optimist” tipini namoyon qiluvchi oraliq tipning borligini isbotlaydi. Shu bilan birga “intelligent-tashkilotchi”ning paydo bo'lishini ehtimoli juda kam, nazariy tomondan bu tiplar birlashishi mumkin. “Intelligent” (4 tur) tipiga mansub o'qituvchilar faoliyatida xam deformatsiya kuzatilgan. Ular ta'lim tarbiya jarayonida o'z o'rnilarini yuqorida deb xarakatlanadi. O'quvchilar bilan va xamkasiblar bilan munosabatlarda intelligentlik distansiya xosil bo'lishiga olib keladi. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi distansiyaning xosil bo'lishi xam o'quv jarayoniga ma'lum salbiy ta'sir ko'rsatadi.

“Kirishimli” (5 tur) tipidagi o'qituvchilar 16.32 foizni tashkil qilib, ular- faqat kommunikativ funksiyalarni yaxshi amalga oshirishga moslashgandir. Bundan tashqari kirishimli tip shaxsining tuzilishini kirishimlilik, raxmdillik, tashqi tomondan o'ziga jalb qilish, yuqori odoblilik tashkil qiladi. Bu sifatlarga bog'liq bo'lgan xissiyotlilik va xatti-harakatni nafisligini ham kiritish mumkin.

Kirishimli o'qituvchi uchun ortiqcha kommunikatorlik, gapdonlik, xamroh bilan oraliq masofaning me'yorini ushlay olmaslik, unga xuddi yosh boladay murojaat qilish, tajribasizlik, ichki sirlarni bilishga moyillik va boshqalar hosdir. Shunday qilib kirishimli-o'qituvchi ekstrovertligi, mojarolarga kam aralashishi, xayrixoxligi, empatiyaga qobilligi, bolalarni sevishligi bilan ajralib turadi. U o'zining tarbiyalash ta'sirini o'quvchiga mos kelishi, shaxsiy hayotdagi birlashish nuqtalarini izlash yo'li bilan amalga oshiradi. Tabiiyki bu ta'sirlar o'quvchining “hayotiy” yurish-turishiga ko'proq o'zgarishlar kiritadi. Oxirgi sifat bu tiplar orasida bog'lovchi zanjir sifatida ishtirok etadi. Shuni ta'kildash kerakki bu yerda mutlaqo emas, balki nisbiy ustunlik haqida gapirilyapti. Masalan, kirishimli o'qituvchi-pedagog, tashkilotchi tipidagi o'qituvchi-pedagogni ishini bajarishi mumkin, lekin “tashkilotchi”ga nisbatan

kirishimli tip ortiqcha kuch va vaqt talab qiladi. “Kirishimli” (5 tur) tip o‘qituvchilar ta’lim tarbiya jarayonida o‘z o‘rnini to‘g‘ri baxolay olmaydi. Bu xolat xam o‘qituvchilar faoliyatidagi deformatsiyadir. Kirishimlilik xam yillar davomida shakllanadi. Uni ta’lim tarbiya soxasidagi salbiy ta’siri o‘quvchilarni rivojlanishda xar bir kishini o‘z o‘rnini bilishi kerakligini bildirib borishdan chetlashtiradi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan tiplari (kirishimli, predmetik, tashkilotchi, intelligent) pedagogik munosabatlar o‘zining qo‘llagan usullari va tarbiyalash yo‘llari orqali ta’sir kanaliga ega.

Kasbiy faoliyat bilan birga mutaxassisning shaxsiy xususiyatlarini o‘zgarishi xam kuzatiladi, bir tomondan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshiriga moslashgan, sifatlarning intensiv rivojlanishi kuchayadi, boshqa tomondan bu jarayonda ishtirok etmagan sifatlarning o‘zgarishi yoki susayishi va xatto yo‘qolishi amalga oshishi mumkin.

O‘qituvchi o‘zining shaxsiy xususiyatlarigaga qarab birgina kasbiy funksiyalarni amalga oshirish uchun yuqori darajada moslashgan bo‘ladi. Shu bilan birga boshqa funksiyalardan foydalanib bo‘lmaydiganga o‘xshab qoladi.

Pedagog shaxsining kasbiy faoliyatidagi deformatsiyasi haqida ogohlantirish va uni bartaraf etish maktab psixologining dolzarb ishlaridan biri hisoblanadi. Pedagoglarni faoliyatidagi kuzatiladigan deformatsiyalarni kamaytirish uchun quyidagi tartibda ishlar olib borish lozim:

- Pedagog kadrlarni faoliyati davomida kuzatilishi mumkin bo‘lgan deformatsiyalarni oldindan individual aniqlab borish;
- Aniqlangan turdagi deformatsiyalarni bartaraf etish uchun xar bir tur deformatsiya turiga mos tadbirlar ishlab chiqish;
- O‘qituvchi faoliyatidagi deformatsiyani xajmiga qarab, zarur xolatlarda pedagogni boshqa muxitga o‘tkazish;
- O‘qituvchilarni davriy faoliyati bo‘yicha malaka olishini tashkil etish;
- O‘qituvchi kadrlarni faoliyati bo‘yicha raxbariyatni doimiy nazoratini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Безносков С.П. Профессиональная деформация личности. – СПб.: Речь, 2004. - 272 с.
2. Bessonova L., Dobrosmyslova S. Professional and personal competence as a condition for overcoming professional deformation of a social work specialist’s personality. Современные исследования социальных проблем. № 1 (09). 2012.
3. Газиев Э.Г. Управление учебной деятельностью школьников. Тошкент, 2001г.

4. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Психология профессиональных деструкций: Уч. для вузов. – М.: Академич. проект, 2005. – 240с.
5. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога. Москва. Владос.1999. Книга 2. 476с.
6. Ғозиев Э., А.Жабборов. Фаолият ва хулқ-атвор мотивацияси. Университетларнинг психология мутахассислиги учун ўқув қўлланма. Тошкент-2003 й.
7. Словарь иностранных слов. -13-е изд., стереотип. М., изд, Русский язык, 1979, с изменением.